


Information Security and Culture in a Digital Society

Sodikov Islambek Otabek o'glu

PhD Student of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

sodislom@gmail.com



Abstract

This article analyzes the issues of information security and culture in a digital society. The positive and negative aspects arising in human life as a result of the rapid development of modern information technologies are considered. It also covers issues such as the protection of personal data, their methods and ways, the culture of communication in the digital space, and Internet ethics. At the end of the article, suggestions and recommendations are given on ensuring information security and developing digital culture as a result of the research.

Keywords: Information, culture, information security, digital society, digital culture, cybersecurity, personal data, Internet ethics, cyberbullying, information protection, digital literacy.

Introduction

Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi va madaniyat

Sodiqov Islombek Otabek o'gli

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti

sodislom@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligi va madaniyat masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida inson hayotida yuzaga kelayotgan ijobiy va salbiy jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ularning usul va yo'llari, raqamli makonda muloqot madaniyati hamda internet etikasi kabi muammolar yoritiladi. Maqola so'ngida tadqiqotlar natijasida axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: axborot, madaniyat, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, raqamli madaniyat, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar, internet etikasi, kiberbulling, axborot himoyasi, raqamli savodxonlik

Информационная безопасность и культура в цифровом обществе

Содиқов Исламбек Отабек углы

Аспирант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

sodislom@gmail.com

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы информационной безопасности и культуры в цифровом обществе. Рассматриваются позитивные и негативные аспекты, возникающие в жизни человека в результате стремительного развития современных информационных технологий. Также затрагиваются такие вопросы, как защита персональных данных, методы и способы их защиты, культура общения в цифровом пространстве и интернет-этика. В конце статьи даются предложения и рекомендации по обеспечению информационной безопасности и развитию цифровой культуры на основе проведенного исследования.

Ключевые слова: информация, культура, информационная безопасность, цифровое общество, цифровая культура, кибербезопасность, персональные данные, интернет-этика, кибербуллинг, защита информации, цифровая грамотность

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, axborot oqimining keskin ortishi va raqamli muhitning kengayishi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda ushbu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Madaniyat va axborot o‘rtasidagi bog‘liqlik falsafiy jihatdan ham keng o‘rganilgan. Bu borada Erkin Yusupov madaniyatni inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi tizim sifatida izohlaydi. Uning fikricha, axborot madaniyati ushbu tizimning ajralmas qismi bo‘lib, insonning bilim olish va uni qo‘llash darajasini belgilaydi¹. Shu sababli raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta‘minlash bilan birga, foydalanuvchilarning madaniyatini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shaxsiy, ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega ma‘lumotlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui axborot xavfsizligi deyiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasi shunchaki texnik himoya choralaridan iborat bo‘lib qolmay, balki insonning daxlsiz huquqlarini kompleks kafolatlashga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda, chunki shaxsiy hayot sir saqlanishi, yozishmalar daxlsizligi hamda axborotni erkin izlash, olish va tarqatish huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bevosita mustahkamlanib, davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga muvofiq, har bir shaxsning shaxsiy hayoti, yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari va boshqa aloqa vositalari orqali uzatiladigan axborotlari daxlsiz bo‘lib, ularning sir saqlanishi qonun bilan kafolatlanadi; 33-moddada esa har kim axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatish huquqiga egaligi, ushbu huquqlar

¹ E.Yusupov *Falsafa va madaniyat asoslari*” Toshkent, 2005

faqat qonun asosida va boshqa shaxslarning huquqlari hamda jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida cheklanishi mumkinligi belgilangan.² Raqamli madaniyat esa insonlarning virtual muhitdagi xulq-atvori, axborotdan foydalanish darajasi va etik me'yorlarga rioya qilishini ifodalaydi. Axborot xavfsizligining asosiy jihatlari quyidagi holatlarda namoyon bo'lmoqda:

Maxfiylik (konfidentsiallik) -axborot faqat ruxsat etilgan shaxslar tomonidan ko'rilishini anglatadi. Masalan, insonning shaxsiy ma'lumotlari, bank kartalari rekvizitlari yoki parollar begona shaxslar qo'lga tushmasligi hamda oshkor bo'lmasligi kerak. Aynan mana shu jihat sababli jamiyat va shaxslar o'rtasida turli ko'rinishdagi axborot xavfi vujudga kelmoqda.

Ikkinchidan, **yaxlitlik (integritet)** – axborotning o'zgarmagan holda saqlanishi va uzatilishini ta'minlaydi. Har qanday ruxsatsiz o'zgartirishlar yoki buzilishlar axborotning ishonchligiga putur yetkazadi. Har qanday ma'lumot yoki axborotning yaxlitligini ta'minlagan vaqtda shaxslar o'rtasida barqarorlik ta'minlanadi.

Navbatdagi asosiy muhim jihat bu **mavjudlik (dostupnost)** – foydalanuvchilar zarur vaqtda axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini bildiradi. Texnik nosozliklar yoki kiberhujumlar ushbu jarayonga to'sqinlik qilishi mumkin. Yuqoridagi uchala holatda ham tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligi bugungi kunning muhim va dolzarb mavzularidan biri bo'lib, axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlashga qaratilgan choralar tadbirlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda raqamli tahdidlar ham mavjud bo'lib, jamiyat barqarorligini buzish kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli jamiyatda tahdidlarning ko'rinishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- zararli dasturlar (viruslar);
- fishing (soxta saytlar orqali ma'lumot o'g'irlash); bugungi kunning muhim jinoyatlaridan biri bo'lib, shaxslarning moddiy va ma'naviy holatini buzishga olib kelmoqda.
- kiberhujumlar va xakerlik; asosiy raqamli hujumlardan biri bo'lib, masofadan turib bank rekvizitlari orqali bank kartalariga hujum qilish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.
- ijtimoiy muhandislik (foydalanuvchini aldash orqali ma'lumot olish).

Bunday tahdidlar nafaqat alohida shaxslarga, balki tashkilotlar va davlat tizimlariga ham katta zarar yetkazishi mumkin. Va nihoyat, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olishi mumkin.

Madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli jamiyatda madaniyat tushunchasi yanada kengayib, axborot bilan ishlash odobi va mas'uliyatini ham qamrab oladi. Bu borada mashur o'zbek yozuvchisi Ozod Sharafiddinov o'zining asarida ma'naviyat va madaniyatni jamiyatning ichki kuchi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, madaniyat darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda axborotdan foydalanish ham ongli va mas'uliyatli tarzda amalga oshiriladi.³

Taqdiqotimiz shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqamli makonda shaxslarning axborot madaniyatini yanada yuksaltirish va bu borada tizimli jadallashtirish zarurligini ko'rishimiz mumkin. O'zi axborot madaniyati nima va u bugungi kunda qanday namoyon bo'lmoqda kabi savollar paydo bo'lishi tabiiy. Axborot madaniyati shaxsning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, saqlash va undan maqsadga muvofiq hamda xavfsiz foydalanish ko'nikmalari majmui

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023. — 31, 33-moddalar.

³ O.Sharofiddinov "Ma'naviyat – millat ko'zgusi" Toshkent, 1996

bo'lib, axborotni erkin tasarruf qilish orqali namoyon bo'lish jarayoni hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot madaniyati insonning media savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish darajasi bilan ham uzviy bog'liq. Har qanday ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaslikka ham targ'ib qiluvchi jarayon sifatida o'rta chiqadi. Mazkur tushuncha o'zbek olimlari tomonidan ham turli jihatlarida o'rganilgan. Xususan, Baxtiyor To'rayev o'zining asarida axborot madaniyatini shaxsning axborot muhitida ongli va samarali faoliyat yuritish qobiliyati sifatida izohlaydi.⁴ Uning fikricha, axborot madaniyati nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki axborotni tanqidiy baholash va undan to'g'ri foydalanish madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Axborot xavfsizligini ta'minlashda axborot madaniyati muhim o'rin tutadi. Axborot madaniyati bu insonning axborot bilan ishlash ko'nikmalari, uni tanlash, tahlil qilish, baholash va xavfsiz foydalanish qobiliyatidir. Yuksak axborot madaniyatiga ega shaxs avvalo, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqiga bora oladi. Har qanday manbalarga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, internetda e'tik me'yorlarga rioya qiladi. Shaxsiy ma'lumotlarini himoya qiladi va huquqbuzarliklarni oldini oladi. Bundan tashqari, soxta axborot va manipulyatsiyalarga berilmaydi. Madaniyat tufayli sivilizatsiyalar avlodlar davomida o'z tarixlarini hujjatlashtirishi va yaratishi mumkin. Madaniyat insoniyat jamiyatining axborot asosi, uning mavjudligi uchun muhim shartdir. Shunday qilib, madaniyat axborotdan ajralmasdir. Tahlillardan ko'rinadiki, axborot (raqamli) jamiyatda madaniy tadqiqotlar alohida qiziqish uyg'otadi.

Xulosa sifatida ayta olamizki, raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot madaniyatini yuksaltirish o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan kompleks ijtimoiy-huquqiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdid va xavflarning ko'lamini kengayib borayotganligi mazkur yo'nalishda tizimli yondashuvni talab etmoqda. Shu bois, nafaqat texnologik himoya vositalarini takomillashtirish, balki shaxsning axborot bilan ishlash madaniyatini va mas'uliyatini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari ham shaxsning erkinligi, qadr-qimmatini va daxlsizligi uchun muhim o'rin egallab, ular orqali shaxsning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari ishonchli kafolatlanadi. Xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborotdan erkin foydalanish hamda uni tarqatish huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan bo'lib, bu normalar raqamli makonda inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi va axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari davlat siyosati, huquqiy tartibga solish va fuqarolik ongining uyg'un rivoji asosida amalga oshirilishi lozim. Faqat shu holatda jamiyatning axborot makonidagi barqarorligi, xavfsizligi va taraqqiyoti izchil ta'minlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
2. E.Yusupov Falsafa va madaniyat asoslari" Toshkent, 2005
3. O.Sharofiddinov "Ma'naviyat – millat ko'zgusi" Toshkent, 1996
4. B.To'rayev "Axborot madaniyati va media savodxonlik" Toshkent, 2018
5. Cybersecurity and Cyberwar: What Everyone Needs to Know – P.W. Singer, Allan Friedman

⁴ B.To'rayev "Axborot madaniyati va media savodxonlik" Toshkent, 2018